**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
**Buxoro davlat universiteti rektori**
**_____________O.X.Xamidov**
2024 yil «___» _________
Ro‘yxatga olindi: *№ BD-60211400-1.12*
*№ BD-60211500-1.11*
2024 yil «30» avgust

**SOLFEDJIO**
**O‘QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 200 000 – San’at va gumanitar fanlar

**Ta’lim sohasi:** 210 000 – San’at va gumanitar fanlar

**Ta’lim yo‘nalishi:** 60211400 - Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik)

60211500 – Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy xonandalik)

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda 1000 talik ro‘yxatga kiruvchi **Mukhtar Auezov South Kazakhstan University (Qozog‘iston)** ta’lim dasturi asosida tayyorlandi.

https:// https://auezov.edu.kz/rus/

**Buxoro – 2024**

Scanned with CamScanner

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>So1202</td><td>O‘quv yili<br>2024-2025</td><td>Semestr<br>1</td><td colspan="2">ECTS - Kreditlar<br>2</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>O‘zbek</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>2</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Solfedjio</td><td>30</td><td>30</td><td>60</td></tr>
</table>

**2.** **I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad - professional musiqachining asosiy vositasi bo'lgan eshitish qobiliyatini rivojlantirish va uning yordamida musiqiy nutqning mazmuni va butun asarni anglashdan iborat. Talabalarga musiqiy san'atning o‘ziga xos xususiyatlari to`g'risida bilimga ega bo‘lgan professional musiqachini tarbiyalash, shuningdek musiqa mazmuni va musiqa ifodasining muhim vositalaridan biri sifatida solfedjio to`g`risida talabalarda barqaror tushunchalarni shakllantirishdir hamda ularni amaliyotda tadbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi — talabalarda ichki va tashqi tinglash qobiliyatini rivojlantirish, musiqiy eshitish, kuylash va tinglash jarayonida tovush tozaligini nazorat qilish kabi tasavvur, tushuncha va bilimlarga ega bo‘lish hotirani har tomonlama rivojlantirishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (amaliy mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**I-modul. Solfedjio**

**1-mavzu.** Major gammasini ohanglash. Metr. Ritm. Turg'un va noturg'un tovushlar. Ritmik diktant. 2/4 o'lchovi, pauzalar. Ladning VI-pog'onasi. Melodik diktant.

**2-mavzu.** 3/4 o'lchovi. Zatakt. Transpozitsiya. Eshitib aniqlash. Nuqtali nota, punktir ritm. Ladning IV-pog'onasi. Major pog'onalarida sekunda va tertsiyalar. Bas kaliti.

**3-mavzu.** Sekventsiyalar (diatonik). Garmonik solfedjio. Melodik diktant. Major pog'onalarida kvarta va kvintalar. Ritmik diktant.

**4-mavzu.** 4/4 o'lchovi. Sekventsiyalar. Garmonik ketma-ketlik. Ladning asosiy uchtovushliklari. Eshitib aniqlash. Major ladi pog'onalarida seksta va septimalar. Sekventsiyalar. Oddiy ichki sinkopalar.ladning V-pog'onasi. Melodik diktant.

**5-mavzu.** Metrni turli xissalarida triollar. Garmonik ketma-ketlik. 6/8 3



Scanned with CamScanner

o'lchovi. Garmonik solfedjio. Melodik diktant. Major ladida xarakterli intervallar. Eshitib aniqlash. Minor ladida xarakterli intervallar. Melodik diktant.

**II-modul. Garmonik va ritmik solfedjio**

**6-mavzu.** Major va minor ladlarida D7 va uning aylanmalari. Major va minor ladlarida D7 va uning aylanmalarini tuzish va T ga yechish. Ritmik sinkopali mashqlar.

**7-mavzu.** Garmonik major. VII-pog'ona septakkordi. Ritmik diktant. VII-pog'ona septakkordi va uning aylanmalarini tonallikda tuzish va D7 orqali T ga yechish. VII-pog'ona septakkordi va uning aylanmalarini tovushdan tuzish va D7 orqali T ga yechish. Garmonik diktant.

**8-mavzu.** Melodik major. II-pog'ona septakkordi. Eshitib aniqlash. II-pog'ona septakkordi va uning aylanmalarini tonallikda tuzish va D7 orqali T ga yechish. II-pog'ona septakkordi va uning aylanmalarini tovushdan tuzish va D7 orqali T ga yechish. Ritmik diktant.

**9-mavzu.** Minorda II va VII septakkordlari. Melodik diktant. Tovushdan II va VII septakkordlari. Ritmik diktant. II va VII pog'ona septakkordlarini T ga yeshich va eshitib aniqlash. Ritmik sekvensiyalar.

**10-mavzu.** Og'ishma. Modulyatsiya. 1-darajali turdosh tonalliklar. Majorni V-pog'ona tonalligiga modulyatsiya. Melodik diktant. Majorni IV-pog'ona tonalligiga modulyatsiya. Ritmik diktant. III-VI pog'ona minor tonalligiga modulyatsiya.

**III.Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

**1. Solfedjiolash**

***Bir ovozlik.*** Ohang va ritmik jihatdan murakkab bo`lgan turli to`plamlardan olingan misollarni turli tonalliklarga, sekunda va tersiya yuqoriga va pastga transpozitsiya qilib aniq kuylash. Bas, alt va tenor kalitlarida erkin kuylay olish;

***Ikki ovozlik.*** Turli solfedjio to`plamlaridan va badiiy adabiyotdan olingan gomofonik va polifonik tuzilmali murakkab ikki ovozli misollarni fortepiano jo`rligida duet qilib kuylash;

***Ko‘povozlik (3-4 ovozlik).*** Garmonik solfedjio va garmonik ketma-ketlikni notadan kuylash, shuningdek, uyda tayyorlangan vazifa sifatida turli to‘plamlardan olingan misollarni trio, kvartet tarkibida kuylash. Ovozlardan birini kuylab, qolganlarini fortepianoda ijro etish.



Scanned with CamScanner

### 2. Musiqiy diktantlar

***Melodik diktant.*** Tarkibida alteratsiya va hromatizmning turlari, og'ishma va diatonik, hromatik va major-minor qardosh tonalliklarga modulyatsiyalar bo'lgan ohang va ritmik jihatdan murakkab bo'lgan gomofon-garmonik va polifonik tuzilmali 1 va 2 ovozli diktantlar;

***Ritmik diktant.*** Tarkibida sinkopa, triol, ushlanma va shu kabi ritmik murakkabliklar mavjud bo`lgan diktantlar;

***Garmonik diktant.*** Garmonik ketma- ketlikdan iborat bo'lgan diktantlar. Tarkibida major va minor tonalligida tuzilga uchtovushliklar, septaakordlar va ularning aylanmalari, kadans kvartsekstakkordlard va shu kabi akkordlar ketma-ketligidan iborat bo"lgan diktantlar.

### 3. Tinglab tahlil qilish

***Lad.*** Major va minorning uch turi, xalq ladlarini tinglab tahlil qilish; ***Intervallar.*** Diatonik va xromatik intervallarni tinglab tahlil qilish; ***Akkordlar.*** Uchtovushliklarni, dominantseptakkord (D7) va ularning aylanmalarini tinglab tahlil qilish. Turli akkordsiz tovushlar, dominanta va subdominanta guruhining alteratsiyalangan akkordlari, murakkab bo`lmagan elliptik oborotlar, major-minor vositalari, 1 darajali modulyatsiyani o'z ichiga olgan davriya shaklidan kam bo`lmagan akkord ketma-ketliklarini eshitib aniqlash.

### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1.Musiqiy yozuvlarni bilishga asoslangan intonatsiya qobiliyatlarini mustaqil o'zlashtirish;

2.Musiqiy matn namunalarini-melodik, polifonik, garmonik, ritmik diktantlarni yozib olish, shakl va shakllanish qonunlari, ovozli yetakchilik, uyg'unlik, metro-ritm va tekstura qonunlarini qo'llash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan holda mustaqil ish olib borish;

3. Audio yozuvlardan eshitib aniqlash, gorizontal va vertikal musiqiy to'qimalarni his qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalar va bilimlarni qo'llagan holda o'z ustida ishlash;

4. Musiqiy til elementlarini yaxshi egallagan holda kognitiv va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish: o'quvchilarda improvizatsiyalash, kuy bastalash ko'nikmalarini hosil qilish. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha



Scanned with CamScanner

| | |
|---|---|
| | talabalar Mustaqil ta'limni tashkil etish tartibida ko'rsatilgan mezon asosida amalga oshiriladi. |
| 3. | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>• bir va ikki ovozli xromatizmli diktantlar yozish, notalarni tayyorgarliksiz o'qish, alteratsiyalangan akkordlarni, modulyatsiya va og'ishmali 4 5 tuzilishlarni kuylash va tinglab aniqlash, turli xil sozlanishlarning ifoda imkoniyatlari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;*** (bilim)<br>• ritm, interval, lad va akkordlarni eshitish qobiliyatini tarbiyalash ***ko`nikmalariga ega bo'lishi va ulardan foydalana olishi;*** (ko'nikma)<br>• I darajali tonalliklarga ko'chish bilan kuylarni nota bo`yicha o'qish, garmonik ketma-ketliklarni kuylash va tinglab aniqlash, yakka va jo'r bo`lib kuylash, idrok etish, tovushlarni aniqlash, tovushlarning tarkibi va nisbatlarini aniqlash (intervallar, akkordlar) ***malakalariga ega bo'lishi kerak.*** (malaka) |
| 4. | **V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• Yakka ishlash;<br>• Kichik guruhlarda ishlash;<br>• Individual loyihalar;<br>• Mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar;<br>• Jamoa bo'lib ishlash; |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Ладухин Н. Одноголосное сольфеджио. – М., 2009.<br>2. Matyoqubova S. Solfedjio darslarida ritm mashqlar. -T., 2009.<br>3. Островский А.Л., Соловьев С.Н., Шокин В.П. Сольфеджио - М., 2013.<br>4. Способин И.В. 2-,3-голосие. М., 2009.<br>5. O.Ibrohimov, R.Yunusov. Solfejio darsligi.-T., 2004. |



Scanned with CamScanner

| | |
|---|---|
| | **Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-26.05. 2020.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida. PQ-4038 28.11.2018.<br>3. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug' xalqning — ishi xam ulug', xayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. - Toshkent: Uzbekiston, 2019.-400 b.<br>4. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. 4-jild. - Toshkent: Uzbekiston, 2020.- 452 b.<br>5. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2021.<br>6. Агажанов А. Курс сольфеджио. Вып. 1, 2. – М., 1973. 5. Агажанов А., Блюм Д. Сольфеджио в ключах "До". – М., 1969. 6<br>7. Агажанов А. Курс сольфеджио. Вып. 1, 2. – М., 1973. 5. Агажанов А., Блюм Д. Сольфеджио в ключах "До". – М., 1969.<br>8. Агажанов А., Блюм Д. Примеры из полифонической литературы. – М., 1972.<br>9. Качалина Н. Сольфеджио. Вып.1,2,3. М., - 1981-1983.<br>10. Ладухин Н. Опыть практического изучения интервалов, гамм и ритмов. Изд.: Планета музыки. 2018.<br>11. Xamraev I. Solfedjio. -T., 1963.<br>**Axborot manbaalari**<br>1. http://www.ziyonet.uz<br>2. http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musiqa<br>3. www.musika.uz<br>4. http://www.youtube.com<br>5. http://notes.tarakanov.net<br>6. http://portasound.ru/music-search/musiqa-olami<br>7. www.lex.uz<br>8. www.ziyonet.uz |
| **7.** | Fan dasturi Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2024-yil 30.08.24dagi 1-sonli yig'ilishi bayonnomasi bilan tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun ma'sular:**<br>J.Sh.Saidov – San'atshunoslik va pedagogika fakulteti, "Musiqa ijrochiligi va madaniyat" kafedrasi o'qituvchisi. |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>D.Yu. Ruziyev – BuxDU, "Musiqa ijrochiligi va madaniyat" kafedrasi professori, pedagogika fanlari nomzodi<br>B.I. Mustafoyev – BuxDU, "Musiqa ijrochiligi va madaniyat" kafedrasi professori, pedagogika fanlari nomzodi |



Scanned with CamScanner